XALQ DEPUTATLARI CHIROQCHI TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 13 - iyul VI-65-78-4-66-K/22 Chiroqchi tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 martdagi “2022-2026 yillarda “Obod qishloq” va “Obod mahalla”dasturlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-172-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, tuman mahalliy byudjetidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 martdagi “2022-2026 yillarda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-172-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Byudjet kodeksi”ning 126-moddasiga asosan hamda tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risida taklifini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6- va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari tumani Kengashi,

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 martdagi PQ-172-sonli qaror ijrosini ta'minlash maqsadida, 2022 yil “Obod qishloq” dasturiga tushgan Mustaqillik va Yangiqishloq MFY hududida piyodalar yo‘laklari qurish va tungi yoritish chiroqlari o‘rnatish uchun mablag‘lar ajratish bo‘yicha tuman hokimining o‘rinbosari B.Norqobilovning taklifi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o‘rinbosari (Sh.Tadjiyev), tuman hokimligi moliya bo‘limi (Sh.Maxmatqulov) bilan birgalikda:

mazkur qarorning 1-ilovasiga muvofiq mablag‘larni ajratish ishlarini o‘z vaqtida moliyalashtirish uchun tuman hokimining qaror loyihalarini tayyorlasin;

O‘zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi talablari asosida tuman mahalliy byudjetining tasdiqlangan parametrlariga belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kirisin;

ajratilgan maqsadli mablag‘larni o‘z vaqtida va samarali ishlatilishi yuzasidan

moliyaviy hisobotlar asosida tizimli o‘rganish hamda o‘rganish natijalariga ko‘ra, ishlatilmagan va iqtisod qilingan mablag‘larni tuman mahalliy byudjetiga qaytarish choralarini ko‘rsin.

3. Tuman g‘aznachilik bo‘limi (B.Xazratov) ajratiladigan mablag‘lar bo‘yicha shartnomalarni o‘z vaqtida ro‘yxatdan o‘tkazish va xarajatlarni belgilangan tartibda amalga oshirilishini ta'minlasin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Chiroqchi tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi (U.Abdurahmonov) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi boshlig‘i (Sh.Tadjiyev)lar zimmalariga yuklatilsin.

5. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi **F.Bobotov**

Xalq deputatlari Chiroqchi tuman
Kengashining
2022 yil 13 iyuldagi
VI-65-78-4-66-K/22-son qaroriga
1-ilova

Chiroqchi tuman mahalliy byudjetining daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismini yo'naltirish to'g'risida

№	Ajratiladigan mablag' yunalishi	Ajratiladigan mablag' miqdori
1	Mustaqillik MFY hududida 0,5 km piyodalar yo‘lakchasi qurish va 20 dona tungi yoritish chiroqlari o‘rnatish uchun.	**197 000 000,0**
2	Yangiqishloq MFY hududida 0,5 km piyodalar yo‘lakchasi qurish va 20 dona tungi yoritish chiroqlari o‘rnatish uchun.	**197 000 000,0**
	Jami	**394 000 000,0**

Ajratiladigan mablag'lar miqdoriga yakuniy hisob kitoblar asosida o'zgartirish kiritilishi mumkin.